

MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN O'RNI

*Xoljo'rayev Jahongir Ilhom o'g'li
Namangan davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtmizda madaniy-ommaviy tadbirlarning yoshlar tarbiyasida tutgan o'rni, madaniy tadbirlarni tashkil etish, badiiy sport tadbirlarini o'tkazishdan ko'zlangan maqsad va vazifalar aks ettirilgan.

Kalit so'zlar: Madaniy tadbir, san'at, badiiy sport, konsert, teatr, spektakl, davra suhbati, qadryatlar.

Значение культурно-массовых мероприятий в воспитании

молодежи

Холджораев - сын Джахангира Ильхома

Студент Наманганского государственного университета

Аннотация: в данной статье отражена роль культурно-массовых мероприятий в воспитании молодежи в нашей стране, цели и задачи организации культурно- массовых мероприятий и художественно спортивных мероприятий.

Ключевые слова: культура, событие, культура, искусство, художественный спорт, концерт, театр, спектакль. круговая дискуссия, ценности.

The importance of culture- public events in youth education

**Kholjo'rayev is the son of Jahangir Ilhom
Student of Namangan State University**

Annotation: This article reflects the role of cultural and public events in the education of youth in our country, the goals and objectives of organizing cultural events and artistic sports events

Key words: culture, event, culture, art, artistic sport, concert, theater, performance, round discussion, values.

Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va hayotga joriy etilayotgan turli sohalardagi islohotlar reja va dastur say -harakatlarning barchasi inson uchun uning manfaatlari forovon hayoti , xavfsizligi va orzu umidlari ro'yobga chiqishi bir so'z bilan aytganda, inson va uning baxtli hayotini taminlashga qaratilgan. Mamlakatimiz aholisining madaniy maishiy ahvolini yanada yaxshilash milliy qadriyatlarimiz va g'urur-iftixor tuyg'usini yuksaltirish, jamiatni tudan yangilash, zamonaviy dunyo qarashga bo'lgan har tomonlama barkamol avlodni yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalash kabi dolzarb masalalar davlatimiz siyosatining ustvor yo'naliishlarida o'z aksini topmoqda. Xususan madaniy tadbirlar ham yoshlarimiz ma'naviy boy, aqlan yetuk, jismonan kamol topishda o'zining ulkan hissasini qo'shib kelishi siz-u bizga birdek ayon. Madaniy tadbirlar tog'risida gap borganda ma'lim senariy asosida o'tkaziladigan barcha tadbirlar majmuini madniy tadbirlar deyish mumkin. Turli janrlarda tashkil etilgan konsertlar, davra suhbatlari, uchrashuvlar, mavzuli kechalar, viktorina ya'ni ko'rik tanlovlari, badiiy sport tomoshalari bayramlar va boshqa madaniy tadbirlar turlidir. Shunday ekan madaniy tadbirlarning yoshlar tarbiyasida ahamiyati qanday? Tadbirlarning eng ko'p tashkil etilgan turlaridan biri davra suhbatini olaylik. Davra suhbat rasmiy bo'limgan holatda, kichik auditoriyalarda ma'lum bir mavzu atrofida suhbat tariqasida tashkil etiladi. Tarbiyaviy, ilmiy, ma'naviy –marifiy, huquqiy, tibbiy, ekalogiya kabi yo'naliishlar bo'yicha suhbat, savol-javoblar yoshlarning bilim darajasi dunyo qarashi va turli sohada savodini oshirishda o'z mahsulini bermay qolmaydi. Muhim muammolarni hal qilishda , to'g'ri qaror qabul qilishlarida ham ma'ruza va davra suhbatlarini ro'li kattadir.

Davra suhbatlari mamlakatimizda bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarni xalq ommasiga yetkazishda uning mazmun mohiyatini tushintirishda kata ahamiyatga ega. Undan tashqari madaniy tadbirlarning juda ko'p qo'llaniladigan turlaridan biri konsertlarni va spektakllarni tashkil etishdir. "Konsert" tushunchasi lotinchadan "o'zishaman" degan ma'noni anglatadi. Konsertlar o'z tuzilishiga ko'ra turli xil bo'ladi. Yakkaxon konsert, guruhlar galakonsert. U. Qoraboyev o'zining "Badiiy-ommaviy tadbirlar" kitobida konsertlami uch turini, ya'ni oddiy (filarmonik) konsert, tetarlashtirilgan konsert hamda ma'lum bir mavzu asosida o'tkaziladigan konsert turlarini ko'rsatib o'tadi. Oddiy filarmonik konsertda kuy, qo'shiq, raqlarning ketma-ketligi ifodalangan dastur tayyorlanadi. Mavzuli va tetarlashtirilgan konsertda esa senariy to'liq yozilishi shart. Masalan, "ISHID fitnasi", "Qullikka rozi bo'lmang", "Milliy qadriyatlar-bizning qadriyatlar"; "Ommaviy madaniyat tahdidi va unga qarshi kurash zaruriyati", "Giyohvandlik umr zavoli", "Ichish, chekish va zararli odatlarga qarshi kurashaylik!", "Giyohvandlikning salbiy oqibatlari", "OITS kasalligining oldini olish", "Diniy ekstremizm, missonerlikning mohiyati" kabi va undan tashqari mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayotidagi kundalik voqeа – hodisalarga, mehnatga bag'ishlangan mavzuli kechalarni tashkil etish orqali insonlar ongiga ta'sir qilish va ularda salbiy oqibatlarga nisbatan qarshi tura olish imunitetni shakillantirish kabi vazifalar qo'yilgan holda yondashish maqsadga muofiqdir. Aynan yoshlarning ma'naviyatini oshirish, ularga shonlik tarix haqida ma'lumot berish, mustaqillik erishilishiga bo'lgan yo'ldagi mashaqqatlar, erishlgan yutiqlarni ko'rsatib berish uchun biz teatrni ham sanab o'tamiz. Turkiston milliy uyg'onish adabiyotining e'tiborli vakillaridan shoир, dramaturg, jurnalist ustoz Abdulla Avloniy ta'biri bilan aytganda "Teatr bu - ibrat xonadir". Teatr so'zidan kelib chiqadigan bo'lsak tomoshaxonadir va mana shu tomoshaxonalarda yoshlarni ma'naviy boy asarlar bilan tanishtirib boorish. O'tmishdagi mutafakkir, dono, mehrsevar, mehnatsevar, o'zbek elining buyuk insonlarini qayta gavdalantirshga

harakat qilishadi. Chindan ham tetar inson tafakkurini yuksaltirishda xususan yoshlarni ezgulikka chorlash, ularda vatanni sevish, ota-onasiga, oila va do'stlikni qadrlash o'z kasbiga fidoiylik tuyg'ularini shakllantirishda muhum o'rinni tutadi. Muhtaram Prezidentimiz "Teatr xalqni to'g'ri so'zlashga o'rgatadi" deb ta'kidlagani ham bunga yaqqol misoldir. Shu jumladan O'zbekistonda badiiy sport turlarini, tadbirlarini tashkil etish bo'yicha bir qancha tadbirlarni sanab o'tish mumkin. Sport va san'at sohasi mamlakatimizni dunyoga tarannum qilivchi o'ta katta qudratli vositalardan biri ekanligi hammamizga ma'lum. Badiiy sport tadbirlarni tashkil etishning maqsad - sog'lom turmush tarzi, insonlar salomatligi, ularning ham ma'nani ham jismonan yetuk bo'lishlarida yordam beradi. Sport va san'at bu mamlakatni boshqa yurtlarga tanishtiruvchi vosita hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz siyosatida sport va san'atni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha qaror, farmon va farmoishlarga guvoh bo'lганmiz. "Sog' tanda sog'lom aql" deganlaridik jamiyat uchun ham sog'lom insonlar zarurdir. Madaniy tadbirlar nafaqat yoshlarning baliki, xakqning ijtimoiy-madaniy hayotida muhim ro'l o'ynaydi. Ular shaxsning har tomonlama rivojlanishi va ijtimoiy –madaniy faolligini oshirish jarayonini o'ziga xos vazifalarni bajarishga ya'ni havaskorlik ijodiga jaib qilish va mazmunli dam olish hordiq chiqarishni uyishtirishga yordam beradi. Bunday tadbirlar faqatgina kishilarning hordiq chiqarishinigina emas, balki bilimini, dunyoqarashini o'stirishga, ijodkorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, o'z navbatida, jamiyatdagi asosiy ish faoliyati bilan yaxshiroq shug'ullanishga samarali yordam beradi. "Mustaqillik va Navro'z" madaniy tadbirlari, "Sharq taronalari" musiqa festivaliga bag'ishlangan asosiy tomosha va tantanalarni tayyorlash bo'yicha teatr va telvideniya rejissiyorligini badiiy-publisistik, senaristlik borasida ulkan tajriba to'plandi. Ana shu boy tajribalarni har tomonlama chuqr o'rganish umumlashtirish va shu asosda yosh ijodkorlarni tarbiyalash bo'yicha zaruriy va o'quv-uslubiy bazani shakllantirish, bugungi talablarga javob beradigan mutaxasislarni tayyorlash yuzasidan amaliy ishlarni keng yo'lga qo'yish bu muammolarni yechish imkonini

berishi shubhasiz. Madaniy tadbirlar insonlarni go'zallikka chorlovchi birlashtiruvchi vositadir. Madaniy tadbir shunday bir ijtimoiylikki har qanday davrda ham uning bosh maqsadi inson tarbiyasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Mirziyoyev “ O'zbekiston respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-4038 sonli qarori” Toshkent shahri 2018-yil 28-noyabr.
2. B.Sayfullayev, V.Rustamov, B.Inatullayev “Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati” Namangan 2021-yil.
3. V.K.Rustamov “Senariynavislik mahorati” “Barkamol fayz media” 2017-yil.
4. B.S.Sayfullayev, V.K.Rustamov “Prodyuserlik mahorati”. – T: “Fan va texnologiya”, 2015-yil
5. Go'zal Xoliqova “ Teatr xalqi to'g'ri so'zlashga o'rgatadi”. Yangi O'zbekiston 2020-yil 12-sentabr.
6. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o 'qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4).